

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING INSONPARVARLIK VA MA'NAVIY-MARIFIY AHLOQINI RIVOJLANTIRISH HAMDA SHAKLLANTIRISH

Qodirova Madinabonu Qobuljon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti “Ta'lism tarbiya nazariyasi va metodikasi”

(Maktabgacha ta'lism) yo'nalishi magistri

Mamajonova Muhlisa Baxtiyorjon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti talabasi

Alisher Navoiy ijodida ham axloq-odob masalalariga katta ahamiyat berilgan, insonparvarlik g'oyalari ulug'langan. «Odobli inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha odamlar uchun yoqimlirog'idir», degan edi ulug' shoir.

Bunga, asosan, bolani qattiq g'azablanishdan, qo'rqish va xafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni xohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligini uqtirgan. Ota-onaning bolaga turli munosabati turlicha xulqlarni keltirib chiqaradi. Mutafakkir bola xulq-atvorining mo'tadilligi natijasida tan va ruh sog'lomligi kelib chiqishini ham ilmiy asoslab bergen. Alisher Navoiy bola tarbiyasida irsiyat, muhit va tarbiya ta'sirining birdek muhim ekanligini ta'kidlab o'tgan edi.

Maktabgacha ta'lism yoshidagi bolalarni insoniylik tuyg'usi insonparvarlik jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma'naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlarini tarbiyalash va rivojlanirish, axloqiy tarbiya, va vatani sevish, saxovatpeshalik, insonlar va tabiatga hurmat, insonparvarlik fazilatlarini mazmunini amalga oshirishdan iborat. Maktabgacha yoshdagagi bolalarga insonparvar qilib tarbiya berishi bir nechta vazifaga ajratgan bo'ladi, ular quyidagilardan iborat: 1. Bolalarda insonparvarlik va axloqiy tasavurlar va xatti-harakatlarni tarbiyalash 2. Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash

3. Bolalarda insonparvarlik his-tuyg'ularni tarbiyalash

4. Xulqdagi salbiy sifatlarni barham toptirish

Insonparvarlik fazilatlarini yosh avlodning axloqiy rivojlanishida tarbiya va ta'limga uzviy bir - biriga bog'liq muhim omil deb hisoblaydi. Insonparvarlikda va ruhiyatga oid tadqiqotlar natijalarining ko'rsatishicha, maktabgacha tarbiya davri bolaning ma'naviy shakllanishida eng muhim bosqichdir. Shu davrda ma'lum maqsadga qaratilgan ta'lism -tarbiya ta'sirida shaxsning insonparvarlik sifatlari shakllana boshlaydi. 6—7 yoshda ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga keladi. Bola atrofdagilar bilan bo'ladigan munosabatlarida egallab olgan insoniylik fazilatlariga, axloq normalariga, ona kabi muqaddas Vatan tuyg'ulariga asoslangan holda ish tutadigan bo'lib qoladi. Shuning uchun bolalarga ilk yoshdan boshlab insonparvarlik sifatlarini berib borish muhimdir. Insonparvarlik tushunchalari umumiy xarakterga ega, ular alohida munosabatlarni emas, hamma sohadagi munosabatlarni

qamrab oladi. Bunday tushunchalar insoniylik kategoriya deb ataladi. Ezgulik, tartiblilik, haqqoniylik, rostgo'ylik, adolatlilik, mehnatsevarlik, jamoaviylik kabi sifat va xususiyatlarni o'zida birlashtirgan shaxs tavsifi insonparvarlik tamoyillar deb ataladi.

Maktabgacha ta 'lim muassasalarida axloqiy tarbiyani tashkil etishda quyidagi jihatlarga alohida e 'tibor qaratish lozim: 1) kichik, o'rta, katta guruh bolalari uchun sodda elementlar axloqiy fazilatlar haqida ma'lumotlar berish; 2) har bir o 'rgatiladigan u yoki bu fazilatlarni rasmlar, multik tasmalar, diopozitivlar va bolalarning jonli harakatlari orqali tushuntirish; 3) bola doimiy ravishda "nima yaxshi-yu, nima yomon?" so 'zining ma'nosini anglab o 'z fikrini sodda bayon etishi". Insonparvarlik tarbiyaning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi: 1) insonparvarlikka doir tarbiyaviy ishning ma'lum maqsadga qaratilganligi;

2) ta'lim -tarbiya ishiga bola shaxsini hurmat qilgan holda yondashish;
3) insonparvarlik sifati tarbiyasini hayoti va amaliyot bilan bog'lab olib

borish; 4) bolalarning faoiligi; 5) jamoada tarbiyalash; 6) tarbiyaviy ishning tizimliligi va izchilligi; 7) tarbiyaviy ishning ta'sirchanligi; 8) oila, maktabgacha ta'lim muassasasi, davlat va nodavlat tashkilotlar hamda kattalar tarbiyaviy ta 'sirining birligi; 9) boladagi ijobiy sifatlarga suyanish; 10) bola shaxsini har tomonlama rivojlantirishni ko'zda tutish

Bular orqali bolalarning insoniy qadiryatlari shakllanadi va avlodlarimiz e'zozlagan tuyg'ular rivojlantiriladi. Bolalar bizning kelajagimiz, barkamol avlodimiz hisoblanganligidan, biz tarbiyachilarga juda katta ma'sulyat yuklaydi. Bolalar menini ham rivojlantirib boradi.